

**“DO‘STLIK YO‘LAGI” HIKOYASI ASOSIDA 3-SINF O‘QUVCHILARINI
PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASH
METODIKASI**

Kazakova Gulrux Nuriddin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: maqolada “Do‘stlik yo‘lagi” hikoyasi asosida 3-sinf o‘quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash metodikasi tahlil qilinadi. Hikoya mazmuni, qahramonlarning xarakteri orqali o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matnni tushunish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va talqin qilish ko‘nikmalarini shakllantirish usullari taqdim etiladi. Shuningdek, maqolada PIRLS formatidagi test savollari, matnni chuqur tahlil qilishga doir topshiriqlar usullari keltirilgan. Ushbu tadqiqot o‘qituvchilarga darslarni rejalashtirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash hamda individual yondashuvni qo‘llashda amaliy yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: PIRLS, o‘qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, matn tahlili, do‘stlik, hikoya asosida o‘qitish, talqin, xulosa chiqarish, o‘quvchi kompetensiyasi.

3-sinf o‘qish savodxonligi fanida o‘quvchilarni PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlash eng avvalo matnni ongli, izchil va chuqur tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. “Do‘stlik yo‘lagi” hikoyasi mazmunan sodda, ammo ma’no jihatdan boy bo‘lib, undagi voqealar ketma-ketligi, qahramonlarning ichki holati o‘quvchilarga matnni chuqur tushunish imkonini beradi. Darslikda hikoyaga ilova qilingan rasmda qalin qor yog‘gan sokin qish oqshomi, o‘rmon oralab joylashgan kichik uylar tasvirlangan bo‘lib, bu tasvir hikoyaning umumiy mazmunini chuqurlashtirib, o‘quvchilarning voqeani

yaxshiroq tasavvur etishiga yordam beradi. PIRLS talablaridan biri — matn va rasm o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni aniqlay olishdir.

Hikoyada ikki qo'shning xarakter-xususiyati qish faslidagi qor yog'ishi jarayoni bilan tasvirlanadi. Birinchi qo'shni ertalab turib yo'lni tozalaganida, qo'shnisining yo'lagi ham avvaldan ochiq bo'lganini ko'rib, ertasi yana undan erta chiqishga ahd qiladi. Uchinchi kuni ham qo'shni xuddi shunday niyat bilan tong yorishmasidan oldin yo'lakni ochgani chiqadi, biroq har safar kelib qarasa, qo'shnisining yo'lagi allaqachon qorlari tozalangan bo'ladi. Hikoyaning eng qiziqarli nuqtasi — yakuniy burilish. Qo'shnilardan biri boshqasidan: "Yo'lakni qachon ochib ulgurasiz, tun bo'yi uxlamay qorni tozalaysizmi?" deb so'raganida, qo'shnisi kulib, "Men umuman qorni tozalamayman, yo'lak uyimga kelib ketadigan do'stlarim tufayli ochilib turadi", deb javob beradi. Bu o'ziga xos badiiy ifodalash o'quvchida kutilmagan tushuncha uyg'otadi. Matndagi yashirin g'oyani anglash, kutilmagan xulosani topish, obrazlar o'rtasidagi munosabatni talqin qilish kabi PIRLSning yuqori darajadagi fikrlash talablari bilan mos keladi.

O'quvchilarga hikoya asosida beriladigan topshiriqlar ularning matndan ma'lumot izlash, uni qayta ishlash, taqqoslash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, qahramonlardan birining birinchi bo'lib yo'lakni ochishga shoshilishi sababini aniqlash, ular his qilgan tuyg'ularni tasvirlash, rasm va matn o'rtasidagi bog'liqlikni izohlash, hikoyaga mos boshqa sarlavha topish kabi topshiriqlar o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Shu bilan birga, hikoya mazmuni o'quvchilarda ijobiy insoniy fazilatlar — do'stlik, hurmat va mehribonlik qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

PIRLS tadqiqotiga tayyorlov jarayonida hikoya asosida tuzilgan maxsus savollar o'quvchining chuqur fikrlashini kuchaytiradi va o'qish savodxonligini yanada rivojlantiradi. Quyida hikoya asosida PIRLSga mos topshiriqlar ishlab chiqilgan testlar taklif etiladi:

1. Matndan topib javob berish asosida test savoli:

Hikoya qahramoni qo'shnisining qaysi ishidan hayron bo'ladi?

- A) Yo'lakni kechasi tozalab qo'yganidan
- B) Har kuni uyini bo'yab chiqqanidan
- C) Qo'shnisining uyiga qor ko'p yog'maganidan
- D) Qo'shnisini kibrlanganligidan

To'g'ri javob: A.

2. Sabab-oqibatni aniqlash asosidagi test savoli:

Nega qo'shnining yo'lagi doimo ochiq bo'lgan?

- A) Chunki u juda erta turadi
- B) Chunki uning uyiga do'stlari juda ko'p keladi
- C) Chunki uning uyiga qor yog'may qo'ygan
- D) Chunki u qor tozalashni yaxshi ko'radi

To'g'ri javob: B.

3. Matnni talqin qilish asosidagi test savoli:

Hikoyaga yana qanday sarlavha qo'yish mumkin?

- A) "Qorli kecha"
- B) "Mehr yo'lagining siri"
- C) "Qish fasli"
- D) "O'rmon ichidagi uylar"

To'g'ri javob: B (mazmunan eng yaqin).

4. Baholash (evaluation):

Qaysi qo'shning tutgan yo'li sizga to'g'riroq tuyuldi? Nega?

(O'quvchi o'z fikrini asoslab yozadi.)

5. Xulosa chiqarish:

Ushbu hikoyadan qanday axloqiy xulosa chiqarish mumkin?

A) Har kim o'z yo'lini tozalashi kerak

B) Qor ko'p yog'sa hamisha ertaroq turish lozim

C) Do'stlik va o'zaro yordam odamlar hayotini yengillashtiradi

D) Qo'shniga qarab ish qilish kerak

To'g'ri javob: C.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi ko'nikmalarini aniqlash va rivojlantirishda PIRLS asosida baholash mezonidan foydalanish o'qituvchiga dars jarayonini aniq rejalashtirish, o'quvchining matnni tushunish darajasini kuzatish va baholash imkonini beradi. PIRLS asosida baholash mezonini qo'llash jarayonida o'qituvchi avvalo matnning asosiy mazmunini o'quvchilarga tushuntiradi, so'ng o'quvchilar hikoyani mustaqil o'qiydi yoki tinglaydi. O'quvchi matnni qabul qilganidan keyin baholash mezonlari bo'yicha savollar beriladi. Bunda matnni literal darajada tushunish, ya'ni hikoyadagi faktlarni aniq aytib bera olish, voqealar ketma-ketligini bilish kabi ko'nikmalar baholanadi. O'quvchi PIRLS asosida baholash mezonida 3 ballik eng yuqori darajaga erishishi uchun savollarga aniq, to'liq va matndagi ma'lumotlarga tayanib javob bera olishi zarur. PIRLS asosida baholash mezonidan qo'llashda asosiy e'tibor matn mazmunidan xulosa chiqarish, qahramonlar harakati sababini tushuntirish va muammoni hal

qilish bo'yicha fikr bildirishga qaratiladi. Chunki PIRLS talablariga ko'ra, o'quvchi nafaqat matnni o'qiy olishi, balki undan ma'no ajratib olishi, sabab-oqibatni tahlil qilishi va o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lay olishi kerak. Masalan, hikoyadagi qo'shni yo'lagining nima uchun doimo toza bo'lishi yoki qahramonning bunday holatni qanday izohlashi haqidagi savollar o'quvchining mulohaza yuritish darajasini aniqlaydi. O'quvchi mazkur savollarga javob berar ekan, matndan tashqari ravishda o'z fikrini ham bayon qiladi. Agar javobda mustaqil tahlil, asosli fikr va qo'shimcha izohlar bo'lsa, PIRLS asosida baholash mezonini bo'yicha yuqori ball qo'yiladi. PIRLS asosida baholash mezonini dars davomida qo'llashning muhim jihati — baholash jarayonining shaffof va tushunarli bo'lishidir. O'quvchilar baholash mezonlari bilan oldindan tanishtirilsa, ular qanday javoblar yuqori ball olishini biladi va o'z fikrini aniq ifodalashga harakat qiladi. O'qituvchi esa baholash mezonini orqali qaysi ko'nikmalar yaxshi rivojlanganini, qaysi jihatlar ustida qo'shimcha ishlash kerakligini aniqlaydi. Misol uchun, agar ko'pchilik o'quvchilar xulosa chiqarish bandidan past ball olsa, o'qituvchi ushbu ko'nikmani rivojlantirish uchun qo'shimcha matnlar, grafik organayzerlar yoki savollar bilan ishlashi mumkin. PIRLS asosida baholash mezonini qo'llash davomida individual yondashuv ham muhimdir. Ba'zi o'quvchilar matnni literal darajada yaxshi tushunishi mumkin, ammo qahramonlar harakatini tushuntirishda qiynalishadi. Bunday holatda o'qituvchi misollar, rasmlar, ko'mak vositalari yoki qo'shimcha suhbat orqali o'quvchining tahliliy fikrlashini faollashtirishi kerak. Shuningdek, PIRLS asosida baholash mezonini natijalari o'qituvchiga darslarning keyingi bosqichlarini rejalashtirishda yordam beradi. Agar umumiy sinf natijalari bilan individual o'quvchi natijalari solishtirilsa, sinf

bo'yicha umumiy o'sish sur'ati ham kuzatiladi. Shu yo'l bilan baholash mezoni PIRLSga tayyorlov jarayonining tizimli bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilar muntazam ravishda PIRLS asosida baholash mezoni asosida baholanib borilsa, ularning o'qish savodxonligi, tahliliy fikrlashi, matndan ma'lumot ajratib olish, xulosa chiqarish kabi ko'nikmalari izchil rivojlanadi. Natijada, bunday baholash nafaqat o'quvchilar bilimini aniqlash vositasi, balki o'qituvchining metodik faoliyatini takomillashtiruvchi tahliliy mezonga ham aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish"ga oid qarorlari.
3. PIRLS 2021 Framework. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).
4. O'qish savodxonligi bo'yicha metodik qo'llanmalar. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
5. 3-sinf "O'qish kitobi". – Toshkent, 2023. ("Do'stlik yo'lagi" hikoyasi asosida).